

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIYASIDA ERTAKLARNING AHAMIYATI

**Maktabgacha ta’lim sirtqi yo‘nalishi 105 guruh talabasi  
Tillayeva Mahbubaxon Olimovna**

**Annatsiya:** Yosh avlodni bilimli, dono va axloqli qilib tarbiyalashda ertaklarning o‘rni juda muhim. Ertak bola uchun axloqiy ta’limot va nasihatlardan ko‘ra afzalroqdir. U yaxshilikka ishonchni uyg‘otadi, qiyin vaziyatda yechim topishga, odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Ertak bolaning adolat, sevgi, do‘stlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurini shakllantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan faoliyatlarni bolalar uchun ham aqliy ham jismoniy ahamiyati kattadir. Ushbu maqolada ertaklar orqali bola psixologiyasiga qanday ta’sir o‘tkazish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar.** Bolalar psixologiyasi, obrazli faoliyatlar, xulq-atvor, ijtimoiy ehtiyoj, ongli maqsad, o‘ziga bo‘lgan ishonch, bolalar mohiyatiga ijobiy ta’siri.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish” bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqida “Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o‘qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajak yoshlarning o‘zligini to‘la namoyon etishga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu kabi ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q” deydi SH.Mirziyayev.

Ertaklar aqlga ham, yurakka ham faol ta’sir ko‘rsatadi: aqlni to‘ldiradi, yurakni hissiyotchana qiladi. Barchamiz bolalarimizning jasur va intiluvchan, diyonatli, e’tiqodli, aqlli bo‘lib voyaga yetishini istaymiz. Buning uchun esa, uning tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiladigan, aqliy salohiyatini o‘stiradigan ertaklardan foydalansak bo‘ladi. Ertakterapiya atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to‘g‘rilashda foylaniladigan usuldir.

Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning ertaklardagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir.

Bog‘cha yoshdagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bola atrofda narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatlar bolishga kuzatiladi. L.S.Vigotskiyning madaniy tarixiy kontseptsiyasida bolaning psixik taraqqiyoti qarama-qarshiliklar kurashi asosida yuz beradi, bolaning shu choqqacha erishgan imkoniyatlari darajasi bilan yangi ehtiyojlari o‘rtasida tug‘iladigan qarama-qarshiliklar bolaning psixik jihatdan taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi deb aytadi.

Masalan, ilk yoshdagi bolaning tili endi chiqayotgan bo‘ladi. Uning so‘z zaxirasi deyarli bo‘lmaydi. Bundan tashqari ular so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz eta olmaydilar. Shu sababli bu yoshdagi bolalarning tilini hamma ham bemalol tushuna olmaydi. Bolaning mana shu davrida biz ertaklardan foydalanishimiz mumkin. Bunda bola foliyatlar dovomida ertaklarni sahnalashtirishimiz orqali o‘zi ham ishtirok etadi. Bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. Orzusidagi qahromonga aylanadi (ma’lum mudadga bo‘lsa ham) vatan parvalik ota-onaga bo‘lgan mehr-muhabbat do‘stlik tushunchasi hayvonat va o‘simlik dunyosiga bo‘lgan mehr-shavqat tuyg‘ulari rivojlanadi. Bu ijobiy hislatlar ularning ruhiyatini ko‘tarishga xizmat qilsa salbiy qahromonlarining yomon odatlari ularni to‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi. Bunday yomon odatlarni o‘zlarida shakllantirmaslika harakat qiladilar. Yana bir muhim jihati, agar sahnalashtirilgan ertagimiz foliyat mavzusi bilan bir hillikda bo‘lsa, mavzu tarbiyalanuvchi bolalar uchun yanada tushunarli tarzda bo‘ladi. Masalan; O‘zbek xalqimizning milliy

qadiryatlarni o‘ziga singdirgan “Qimmat va Zumrad” ertagi. Bu ertakdagi ijobiy qaxramon mehribon mehnatkash Zumrad va uning ko‘ngilchang otasi. Salbiy qahramon Qimmat va uning onasi. Shu bir ertakni o‘zini bir necha foliyatlarda bog‘lasak bo‘ladi. “Hushmomilalik alifbosi” mavzusi, “O‘zbekiston mening vatanim” mavzusi, “Meva va sabzavotlar” mavzusi. Bunda o‘rmonda adashib qolgan Zumradni topib olgan dono kampirning uyidagi Zumradga bo‘lgan samimiy munosabat, yaratilgan shart sharoitlar, Zumraratning o‘z uyiga o‘xshamasligi. Uni o‘z uyi va vataniga bo‘lgan muhabatini oshirsa, otasiga bo‘lgan soginch tuyg‘usi, ota-onaga bo‘lgan mexrni yanada mustahkamlaydi. Bunday foliyat bolalarning jismoniy va psixik jihatdan rivojlanishi uchun yoxshigina vositadadir. Bolalar bunda tafakur qiladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish keraki, bunday foliyatlar faqat tashqi muhuddagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki to‘g‘ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko‘plab muammolar – qo‘rquv, injiqlik kabilarni yo‘qotish, bolada qat’iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo‘llamay, balki oila davrasida muntazam qo‘llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhurlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini o‘tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim. Bunday faoliyatlar bolaning jismoniy va psixik jihatdan rivojlanishi uchun yaxshigina vositadur. Bolalar bunda tafakkur qilish, xom xayol surish, dam olish va xushchaqachaqlik jarayonlarining barchasi faoliyatda aniq boladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yhati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. Sh.Mirziyoyev 15.11.2022-y.

2. Do‘smuhammedova.Sh.A, Tillashayxova.X.A, Baykunusuva.G.Yu, Ziyavitdinova.G.Z, “Yosh davrlari va pedagogic psixologiya”- darslik Toshkent.Nizomiy nomidagi TDPU, 2021-y

3. Ivanov.I, Zufarova.M “Umumiy psixologiya” Oz.FMJ., 2008.

4. Davletshin.M.G., Mavlonov.M.M, To‘ychiyeva.S.M “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU 2009 .

5. Xaydarov.F.I, Xalilova.N “Umumiy psixologiya” T. “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi 2009

6. Xosilbekovna, S. F. (2024). PSIXOLOGIK HOLATLARGA TUSHISHNI OLDINGI OLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(4), 56-58.